

Kreditning to'liq qiymati

(raqam va so'z bilan yoziladi)

Kredit shartnomasi

(na'muna)

_____sh.

20__ yil «__» _____.

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki nomidan (bundan buyon matnda «Bank» deb ataluvchi) _____ ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi _____ bank xizmatlari markazi boshlig'i _____ bir tomondan va ikkinchi tomondan _____ nomidan (bundan buyon matnda «Qarz oluvchi» deb ataluvchi) Nizom/Guvohnoma/ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi rahbar/tadbirkor _____ ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1 Bank Qarz oluvchiga mazkur shartnomada ko'rsatib o'tilgan miqdorda va shartlar asosida kredit mablag'larini ajratadi, Qarz oluvchi esa o'z navbatida olingan kredit mablag'larini belgilangan muddatda qaytarish va kredit mablag'laridan foydalanganligi uchun foizlarni to'laydi.

2. Kredit summasi va shartlari

2.1. Kredit summasi _____
(so'z va raqam bilan) (kredit valyutasi)

2.2. Kreditdan foydalanish muddati _____ oy.

2.3. Kreditning imtiyozli davri _____ oy.

2.4. Asosiy kredit va kreditga hisoblangan foizlar to'lovi ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan to'lov jadvaliga muvofiq (*annuitet yoki diffirensiyal*) amalga oshiriladi.

2.5. Kredit bo'yicha foiz stavkasi yillik: _____ foiz.

2.6. Kreditning maqsadi va ob'ekti - _____.

2.7. Moliyalashtirish manbasi- _____ mablag'lari hisobidan.

2.8. Kredit ajratish shakli - _____.

2.9. Kreditning qaytarish muddati: _____.

3. Qarz oluvchining tasdig'i

3.1. Qarz oluvchi quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda tashkil etilgan va ro'yxatga olingan tadbirkorlik sub'ekti hisoblanadi;

- ushbu shartnomani tuzish va uning ijrosi, hamda shartnomaning barcha shartlari Qarz oluvchining ta'sis hujjatlariga zid emas;

- Bankka taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar haqiqiy va ular Qarz oluvchining moliyaviy ahvolini aks ettiradi. Qarz oluvchi Bankka taqdim etilgan moliyaviy hisobot va boshqa hujjatlarda aks ettirilgan majburiyatlardan boshqa haqiqiy yoki shartli majburiyatlarga, shuningdek boshqa shaxslar foydasiga berilgan kafillikka ega emas;

- Qarz oluvchiga nisbatan ma'muriy va boshqa sud ishlari qo'zg'atilmagan va uchinchi shaxslar oldida Qarz oluvchining mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bajarilmagan majburiyatlari yo'q;

- Qarz oluvchi unga Bank tomonidan ajratilayotgan kredit to'g'risidagi ma'lumotlarni Banklararo kredit byurosiga taqdim etilishiga o'z roziligini bergan;

- Qarz oluvchi tomonidan uning aktivlari uchinchi shaxslar foydasiga garovga qo'yilmagan, Qarz oluvchining mulkiga nisbatan ushlab qolish huquqi mavjud emas.

4. Taraflarning huquq va majburiyatlari

4.1. Bankning majburiyatlari:

4.1.1. Qarz oluvchiga mazkur shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va shartlarda kredit berish;

Bunda, Bankning ushbu shartnoma bo'yicha kredit ajratish majburiyati, kredit qaytarilishining ta'minlanishini belgilovchi hujjat belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirilgan va Bank tomonidan qabul qilib olingan (ipoteka bo'lgan hollarda - ipoteka shartnomasi qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, davlat ro'yxatidan o'tgazilgan va garovga qo'yilgan mulk majburiy tartibda sug'urtalangandan so'ng) kundan boshlab yuzaga keladi.

4.1.2. Olingan kreditni hisoblash uchun Qarz oluvchiga ssuda hisob raqamini ochish;

4.1.3. Qarz oluvchini Bank tomonidan kreditni muddatidan ilgari undirish asoslari va sabablari haqida xabardor qilish.

4.2. Qarz oluvchining majburiyatlari:

4.2.1. Ushbu shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kunlik muddat ichida, kredit qaytarilishining ta'minlanishini belgilovchi hujjatlarni (ipoteka bo'lgan hollarda - ipoteka shartnomasini qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, davlat ro'yxatidan o'tgazish, garovga qo'yilgan mulkni majburiy tartibda sug'urtalash, belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirish) va Bankka rasmiy ravishda taqdim etish;

4.2.2. Kreditni va unga hisoblangan foizlarni mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi hamda to'lanishini ta'minlash, shuningdek, kreditorga to'lov muddati kelganda qarz oluvchining barcha (har qanday) hisobvaraqlaridan oldindan berilgan aksept bilan to'lov xujjati (to'lov talabnomasi yoki memorial order) orqali shartnomadan kelib chiqadigan har qanday majburiyatlarni to'lash uchun pul mablag'larini hisobdan chiqarish huquqini berish (neustoyka ham shular jumlasidan). Qo'yilgan talabnoma mazkur shartnomaga asosan qarz oluvchi tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

4.2.4. Kreditdan foydalanish jarayoni davomida kreditlashning asosiy tamoyillari: muddatlilik, qaytarishlilik, to'lovlilik, kredit qaytarilishining ishonchliligi va ta'minlanganligiga rioya qilish;

4.2.5. Qarz oluvchining moliyaviy ahvolini monitoring va tahlil qilish uchun Bankka xar chorakda buxgalterlik balanslari, foyda va zararlar bo'yicha moliyaviy hisobotlar va boshqa hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish;

4.2.6. Bank xodimlarini maqsadli tekshirishlar (Qarz oluvchining moliyaviy holati, hisob yuritish hamda hisobot berish axvoli, hamda garovga qo'yilgan mulkning saqlanishi va butligi masalalari bo'yicha) o'tkazishlari uchun ishlab chiqarish, ombor, xizmat va boshqa binolarga kiritish, shuningdek ularning talablariga asosan birlamchi hisobot va buxgalterlik hujjatlari bilan tanishtirish;

4.2.7. Tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi yoki Qarz oluvchining moliyaviy ahvoriga o'z ta'sirini o'tkazuvchi har qanday boshqa qayta tashkil etish holatlari yuzasidan Bankni 15 kun oldin yozma ravishda xabardor qilish;

4.2.8. Qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda zudlik bilan kreditni qaytarish va shartnomada muddatidan qat'iy nazar, kredit bo'yicha barcha foizlarni to'lash;

4.2.9. Mazkur shartnoma amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi quyidagilarning bajarilishini ta'minlashi lozim:

- o'z faoliyatini malakali rahbarlari nazorati ostida lozim darajadagi samaradorlik bilan qonunchilikka muvofiq, shuningdek umumtan olingan tamoyillar va sog'lom amaliyotga asoslanib amalga oshirish (faoliyat yuritish);

- o'z mulkini, asbob-uskunalarini va boshqa mol-mulkini normal holatda saqlash (asosiy fondlarni ekspluatatsiya qilish);

- buxgalterlik hisobini va ichki nazoratni amaldagi buxgalterlik hisobi va hisoboti qoidalariga asosan olib borish va har yili o'z moliyaviy hisobotlarining auditini o'tkazish;

- kreditlanayotgan loyihani lozim darajadagi samaradorlik bilan xavfsizlik, atrof muhitni muhofaza qilish normalari va amaliyotiga asosan amalga oshirish;

- har qanday sud nizolari, shartnomaviy majburiyatlardagi yoki uning moliyaviy holati bo'yicha kreditning qaytarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi boshqa o'zgarishlardan Bankni o'z vaqtida yozma ravishda xabardor qilib turish;

- o'zining faoliyatini amalga oshirish va mazkur shartnoma shartlarini bajarish uchun lozim bo'lgan barcha ruxsatnoma va litsenziyalarni o'z vaqtida olish va ularning muddatini uzaytirish.

4.2.10. Mazkur shartnoma kuchda bo'lgan davrda, agar ular kreditlanayotgan loyihaga va yoki Qarz oluvchining mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa, Bankning oldindan roziligini olmasdan, Qarz oluvchi quyidagi harakatlardan birortasini amalga oshirmasligi zarur:

- boshqa kreditorlardan kredit va qarz olish, boshqa shaxslarga kredit va qarz berish, uchinchi shaxslarning kreditorlari oldida kafil (yoki garant) bo'lish;
- sho'ba korxonasi ochish, o'z ta'sis hujjatlariga katta ahamiyatga ega bo'lgan muhim o'zgartirishlar kiritish;
- har qanday qayta tashkil etish va tugatishni amalga oshirish;
- kredit hisobiga sotib olingan mulkning hammasini yoki bir qismini sotish yoki boshqa yo'llar bilan begonalashtirish, begona shaxslarga berish, ijaraga berish, garovga qo'yish, ushlab qolish huquqi va uchinchi shaxslar foydasiga o'z mulkiga nisbatan boshqa imtiyozli huquqlarni vujudga keltirish;
- dividend to'lash va foydani boshqa usullarda taqsimlash (mazkur shartnoma kuchga kirgunga qadar olingan foydalar uchun dividendlar to'lash bundan mustasno), boshqa yuridik shaxslarning biron-bir investitsion qimmatli qog'ozlarini sotib olish;
- boshqa korxonani yoki uchinchi tomonning, kompaniyaning yoki korxonalar mulkning katta qismini sotib olish;
- o'z kapitalini kamaytirish.

Qarz oluvchi Bankning oldindan roziligini olmasdan yuqoridagi harakatlarni amalga oshirgan hollarda, Bank kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarish choralari ko'rishi mumkin.

4.2.11. Xalq bankining "Contact center" operatorlari qo'ng'iroqlariga xushmuomalalik bilan javob berish va muloqatda bo'lish hamda SMS xabarlarini ijobiy qabul qilish;

4.2.12. Qarz oluvchining telefon raqami o'zgargan hollarda, zudlik bilan Bankni xabardor qilish. Bunda, telefon raqami o'zgargan kundan boshlab ikki ish kunida Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Bankni xabardor qilishi lozim.

4.2.13. Qarz oluvchining kredit tarixini shakllantirish maqsadida zarur bo'lgan ma'lumotlarni Banklararo kredit byurosiga taqdim etish uchun Qarz oluvchi Bankka o'z roziligini beradi.

4.2.14. Pul aylanmasini Xalq bankidagi hisob raqamlari orqali amalga oshirish;

4.2.15. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunlariga hamda Xalq banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Axborotni, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashga rozilik shartlari"ga muvofiq jamiyat/korxonaga ta'sichisi, rahbari, bosh hisobchisiga taalluqli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashga va ulardan foydalanishga roziliklarini taqdim etish;

4.2.16. Qarz oluvchi ushbu kredit shartnomasi bo'yicha asosiy ta'minotdan tashqari korxonaga/jamiyat rahbari va ta'sischisining yozma kafilligini (kafillik shartnomasi) taqdim etish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

4.3. Bankning huquqlari:

4.3.1. Qarz oluvchi to'lovga layoqatsiz deb topilganda, kreditni ta'minlash uchun garovga qo'yilayotgan mulk boshqa kredit muassasida garovda turganligi aniqlanganda, kreditni ta'minlash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarilmaganida, shartnoma imzolanganidan keyin taqdim etilgan kreditni qaytarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumot va hisobotlarning haqqoniy emasligi aniqlanganda hamda Qarz oluvchi tomonidan Bankning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlari kuchga kirgan vaqtdan boshlab 1 (bir) oydan ko'p muddat davomida kreditdan foydalanilmaganida (to'lov hujjatlarini taqdim etmaslik) ushbu shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortish;

4.3.2. Quyidagi hollarda Qarz oluvchini bundan buyon kreditlashni to'xtatish va foizlarni hamda kredit bo'yicha asosiy qarzni muddatidan oldin, shuningdek undiruvni kredit ta'minotiga qaratish orqali undirish:

- 30 (o'ttiz) kundan ortiq muddatda kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlar to'lanmaganida;
- Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashganda (zararlar, nolikvid balans va boshqalar) buxgalterlik hisobi lozim darajada yuritilmaganida, taqdim etilgan hisobotlarning noto'g'riligi (haqqoniy emasligi) aniqlanganda;
- mazkur shartnomaga asosan Qarz oluvchi hisobot ma'lumotlarini taqdim etmaganida, Bank nazoratidan bo'yin tovlaganda (bosh tortganda);
- Qarz oluvchi tomonidan Bankka kredit hujjatlari rasmiylashtirilayotganda taqdim etilgan ma'lumotlar haqqoniy emasligi aniqlanganda;
- ajratilgan kreditning qaytarilishi turli sabablarga ko'ra ta'minlanmagan bo'lib qolgan hollarda, shuningdek kredit qaytarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlar bajarilmaganida;

Bunday hollarda Bank oldindan 10 bank ish kundan ko'p bo'lmagan muddat ichida Qarz oluvchini xabardor qiladi, ammo Qarz oluvchining Bank tomonidan ogohlantirilmaganligi Bankning bundan buyon kreditlashni to'xtatish va foizlarni hamda kredit bo'yicha asosiy qarzni muddatidan oldin undirishga bo'lgan huquqiga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi.

4.3.3. Bevosita kredit ta'minotining holatini o'rganish bo'yicha tekshiruvlarni (monitoringni) amalga oshirish;

4.3.4. Qarz oluvchining kredit tarixini shakllantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni Banklararo kredit byurosiga taqdim etish;

4.3.5. Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Qarz oluvchining mobil telefoniga to'lov jadvaliga muvofiq to'lovlar yaqinlashayotganligi haqida 10 kun oldin SMS xabarlar yuborish;

4.3.6. Qarz oluvchi tomonidan kredit va unga hisoblangan foizlar mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda to'lanmagan hollarda, Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Qarz oluvchining mobil telefoniga SMS eslatmalar yuborish. Shuningdek, Qarz oluvchi bilan shaxsan muloqat olib borgan holda to'lovlar belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi lozimligi haqida, hamda aks holda Qarz oluvchiga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishi mumkinligi to'g'risida tushuntirish ishlarini amalga oshirish, shuningdek shu mazmunda SMS xabarlar yuborish.

4.3.7. Qarz oluvchining muddati o'tgan qarzdorliklarini majburiy ravishda undirish maqsadida, sudga da'vo arizasi (sud buyrug'i berish haqida ariza berilganligi) kiritilganligi yoki notariusning ijro xati asosida undirish to'g'risida ariza berilganligi haqida Qarz oluvchining mobil telefoniga SMS xabornomalar yuborish.

4.3.8. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunlariga hamda Xalq banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Axborotni, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashga rozilik shartlari"ga muvofiq jamiyat/korxonaga ta'sichisi, rahbari, bosh hisobchisiga taalluqli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va ulardan foydalanish;

4.3.9. Qarz oluvchidan ushbu kredit shartnomasi bo'yicha asosiy ta'minotga qo'shimcha ravishda korxonaga/jamiyat rahbari va ta'sischisining yozma kafilligini (kafillik shartnomasi) olish huquqlariga ega;

4.4. Qarz oluvchining huquqlari:

4.4.1. Asosli sabablarga ko'ra kredit shartlarini o'zgartirish, shu jumladan qarzdorlikni qaytarish muddatlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha murojaat qilish. Murojaat bankning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi. Bunda quyidagi xollarda kreditlarning muddatini uzaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi:

- muddati o'tgan kredit qarzdorligi (asosiy, foiz) mavjud bo'lganda;
- kreditni qaytarish sud jarayonida ko'rib chiqilayotgan bo'lsa;
- ishonchli (taminotsiz) kreditlar;
- ish haqi to'lovlarini to'lash uchun berilgan kreditlar;
- faktoring operatsiyalari;
- overdraft kreditlar;
- Xalqaro moliya institutlari va boshqa jamg'armalardan jalb qilingan mablag'lar muddatiga mos muddatlarga moliyalashtirilgan kreditlar;

- 100 foiz kafillik yoki sug'urta polisi taminoti ostida berilgan kreditlar;
- uzaytirish muddati davomida aniq to'lov manbalari mavjud bo'lmagan kreditlar.

4.4.2. Kreditning bir qismi so'ndirilganida taminotdagi garov mulkini qisman taqiqdan chiqarish va/yoki boshqa mol-mulkka almashtirish bo'yicha murojaat qilish; Bunda quyidagi hollarda garov mulkini qisman taqiqdan chiqarish va/yoki tarkibini almashtirish qat'iy taqiqlanadi:

- mijoz salbiy kredit tarixiga ega bo'lsa;
- kreditlar muammoga aylangan bo'lsa;
- kreditni qaytarish sud jarayonida ko'rib chiqilayotgan bo'lsa;
- kredit asosiy taminoti sifatida faqatgina ombordagi mahsulotlar garovi, qimmatli qogozlar garovi, kredit qaytmaslik sug'urta polisi, kafillik, kafolatlar qolib kredit taminoti tarkibidan ko'char va ko'chmas mulklarni taqiqdan chiqarish so'ralgan bo'lsa;

- kredit taminoti sifatida taqdim etilgan ko'chmas mulklar yerdan foydalanish/doimiy foydalanish va boshqa huquqlar asosida garovga qo'yilgan bo'lsa va keyinchalik ushbu garov obektining bo'sh yer maydonlarida qo'shimcha qurilishlar qurilganida qo'shimcha qurilgan bino-inshoatlar joylashgan yer maydonini taqiqdan chiqarish so'ralgan bo'lsa;

4.4.3. Oldindan (3 bank ish kun davomida) Bankni xabardor qilib, hech qanday jarima to'lovlarisiz kredit olishdan to'liq yoki qisman voz kechish;

4.4.4. Kredit bo'yicha qarzni hech qanday jarimalarsiz muddatidan oldin qaytarish;

4.4.5. Kreditlash va hisob-kitoblarni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlari va Bankning ichki me'yoriy hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida Bankdan ma'lumot olish. Shuningdek, Xalq bankining "Contact centri" orqali bankdan olingan kredit yuzasidan tegishli ma'lumotlarni olish.

5. Hisob-kitoblar tartibi va taraflarning javobgarligi

5.1. Bank kreditni mazkur shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida Qarz oluvchining ssuda hisob raqamidan pul o'tkazish yo'li bilan tovar-moddiy boyliklar (bajarilgan ishlar va ko'rsatgan xizmatlar)ga to'lash uchun ajratadi.

5.2. Qarz oluvchi berilgan kreditni va kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 1-ilovda belgilangan muddatlarda va miqdorda Bankning hisob-kitobi asosida to'laydi. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar har kuni Bank tomonidan hisoblab boriladi.

5.3. Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan kredit), Qarz oluvchi Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foiz stavkasining 1,3 baravar oshirilgan miqdorida foiz to'laydi.

5.4. Foizlar to'lovi bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar yuzaga kelgan hollarda, Qarz oluvchi Bankka to'lovlarning har bir kechiktirilgan kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penya summasi kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.5. Qabul qilingan muddatli majburiyatnomalar hamda mazkur shartnoma shartlariga asosan ajratilgan kreditni hamda u bo'yicha foizlarni qaytarish to'lov topshiriqnomasi orqali pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Avval foizlar bo'yicha hisoblangan qarzdorlik, keyin kredit bo'yicha asosiy qarz qaytariladi (qoplanadi).

5.6. Qarz oluvchining krediti bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun mablag'lari yetarli bo'lmagan hollarda, qarzdorlik quyidagi navbatda qoplanadi:

- birinchi navbatda asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

- ikkinchi navbatda joriy davr uchun xisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;

- uchinchi navbatda neustoyka (jarima, penya) va undan keyingi navbatda qarz oluvchining qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

5.7. Mazkur Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar yuzaga kelgan hollarda, Bank o'zining talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan tegishli pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda undiradi va bu haqda Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Qarz oluvchining mobil telefoniga SMS xabarnoma yuboradi.

5.8. Ushbu shartnomaning 4.1.1-bandiga muvofiq, Bankning kredit ajratish yuzasidan majburiyati yuzaga kelgan kundan boshlab, Bank Qarz oluvchiga kredit ajratishni kechiktirgan hollarda, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan kreditning 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penya summasi kechiktirilgan kredit summasining 10 foizidan oshmasligi lozim.

5.9. Kredit qarzdorliklar qaytarilmaganligi sababli sud hujjatiga yoki notarius ijro xatiga asosan majburiy undiruv choralari ko'riladi.

6. Kredit qaytarilishining ta'minlanishi

6.1. Mazkur shartnoma asosida ajratilgan kredit _____ bilan ta'minlanadi.

6.2. Qarz oluvchi tomonidan mazkur kreditning asosiy ta'minotidan tashqari korxonajamiyat rahbari va ta'sisчисining yozma kafilligi (kafillik shartnomasi) taqdim etiladi.

6.3. Garov mulklari Bank foydasiga kredit butun davri uchun Qarz oluvchi tomonidan sug'urta qilinishi ta'minlanadi.

7. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan kelishmovchilik va nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

7.2. O'zaro kelishuvga erishilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tegishlilik bo'yicha sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

8. Fors-major holatlar

8.1. Agar shartnoma imzolanganidan so'ng, taraflarning erki va istagiga bog'liq bo'lmagan hamda oldindan ko'ra bilish yoki oldini olib bo'lmaydigan, favqulodda vaziyatlar oqibatidagi yengib bo'lmay kuch tufayli taraflar mazkur Shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmasalar (fors-major), buning uchun ular javobgar bo'lmaydilar.

Bunda taraflarning hech biri, ajratilgan kreditni qaytarish bo'yicha majburiyatdan tashqari, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashni talab qilishga haqli bo'lmaydi.

8.2. Quyidagilar favqulodda vaziyatlar (fors-major) bo‘lib hisoblanadi: suv toshqini, yong‘in, zilzila, portlash, bo‘ron, yer ko‘chkisi, epidemiya, pandemiya va boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar, fuqarolik tartibsizliklari, terrorchilik harakatlari.

8.3. Fors-major holatlari yuzaga kelganda majburiyatlar bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlari davom etgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

8.4. Taraflar fors-major holatlari vujudga kelganligi va tugaganligi haqida zudlik bilan yozma ravishda bir-birlarini xabardor qilishlari lozim.

8.5. Fors-major xolatiga asoslanayotgan taraf, vakolatli davlat idorasining bunday xolatlarni vujudga kelganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

8.6. Kreditlash manbai Markaziy bankning markazlashtirilgan mablag‘lari bo‘lgan holatda, agar biror-bir sabablarga ko‘ra kredit ajratish kechiktirilgan bo‘lsa yoki muddatidan oldin Markaziy bank tomonidan resurslar qaytarib olingan bo‘lsa, kreditning ajratilmagan qismi uchun Bank javobgar bo‘lmaydi.

9. Korrupsiyaga qarshi shartlar

9.1. Mazkur Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari biror noqonuniy ustunlikka yoki boshqa imtiyozlarga erishish uchun biror bir shaxsga, uning harakatlari yoki qaroriga ta‘sir o‘tkazish maqsadida, bevosita yoki bilvosita biror bir pul mablag‘lari yoki qimmatliklarni to‘lamaydi, to‘lashni taklif etmaydi va bunday to‘lovni amalga oshirishga ruxsat bermaydi.

9.2. Ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari amaldagi qonunchilik bilan pora berish/pora olish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish kabi tasniflanadigan harakatlarni, shuningdek amaldagi qonunchilikka doir xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

9.3. Shartnomaning har bir Tomoni boshqa Tomonning xodimlarini rag‘batlantirishdan, shu jumladan xodimlarga pul mablag‘lari, sovg‘alar berish va ular uchun tekin ishlar (xizmatlar)ni bajarish va boshqa yo‘llar orqali ularni ma‘lum bir tobelikka olib kelishi mumkin bo‘lgan va rag‘batlantiruvchi tomonning foydasiga xodimlar biror bir xatti-harakatlarni bajarishlarini ta‘minlashga qaratilgan harakatlardan voz kechadilar.

9.4. Tomonlarda har qanday korrupsiyaga qarshi shartlar buzilganligi yoki buzilishi mumkin bo‘lgan holatlar yuzasidan shubha tug‘ilganda, tegishli tomon yozma ravishda yoki aloqa kanallari orqali og‘zaki tarzda boshqa tomonni xabardor qiladi. Shuningdek, ushbu tomondan ma‘lum muddat ichida tegishli choralar ko‘rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan uni xabardor etishini talab qilishi shart. Tomonning bu talabi ikkinchi tomon tarafidan bajarilmagan taqdirda, ushbu tomon shartnomani bir tomonlama to‘xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to‘liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

9.5. Tomonlar ularning nazorati ostida bo‘lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o‘tkazilmasligini kafolatlaydi.

10. Boshqa shartlar

10.1. Ushbu shartnoma imzolangandan kundan e‘tiboran kuchga kiradi va mazkur shartnoma bo‘yicha taraflar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunga qadar amalda bo‘ladi.

10.2. Ushbu shartnomaning shartlarini o‘zgartirish yoki uni bekor qilish qo‘shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har bir o‘zgartirish va qo‘shimchalar yozma ravishda tuzilib, tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangandan va muhr bilan tasdiqlangandan so‘ng haqiqiy hisoblanadi. Barcha o‘zgartirish, qo‘shimchalar va ilovalar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi.

10.3. Ushbu shartnoma bekor qilinishida Qarz oluvchi kredit bo‘yicha asosiy qarzni va hisoblangan foizlarni to‘liq qaytarishi shart.

10.4. Ushbu bilan Qarz oluvchi uning kredit tarixini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni Bank tomonidan Banklararo kredit byurosiga berilishiga o‘z roziligini beradi.

10.5. Mazkur shartnomada ko‘zda tutilmagan holatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan normalar asosida tartibga solinadi.

10.6. Tomonlarning bank rekvizitlari, manzillari, turar joylari o‘zgargan hollarda taraflar bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

10.7. Qarz oluvchi tomonidan kreditning asosiy qarzi va hisoblangan foizlarni to‘lash muddati kechiktirilgan hollarda, Bank Qarz oluvchiga talabnoma yuboradi, Qarz oluvchi tomonidan talabnoma olingan kundan boshlab 15 kun ichida javob xati berilmagan yoki qarzdorlik qoplanmagan taqdirda Bank kredit qarzdorlikni o‘rnatilgan tartibda sud tartibida undiruv choralarini ko‘radi.

10.8. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, taraflarda bir nusxadan saqlanadi.

**11. Tomonlarning yuridik manzillari
to'lov rekvizitlari, imzolari**

<p align="center">Aksiyadorlik tijorat Xalq banki _____ BXM</p>	<p align="center">Mijoz nomi</p>
<p>Manzil _____ viloyati , (shaxar), _____ tuman (shaxar), ko'cha, uy</p>	<p>Manzil: _____ viloyati , (shaxar), _____ tuman (shaxar), ko'cha, uy</p>
<p>h/r:</p>	<p>h/r.</p>
<p> </p>	<p> </p>
<p>MFO:</p>	<p>MFO:</p>
<p>STIR:</p>	<p>STIR:</p>
<p>“Contact center” aloqa tel.raqami: (71) 210-20-02</p> <p>_____</p> <p align="center"><i>(F.I.Sh. imzosi)</i></p> <p align="center">muhr, sana ____ ____ ____ y.</p>	<p>Tel.raqami:</p> <p>_____</p> <p align="center"><i>(Lavozimi, F.I.Sh, imzosi)</i></p> <p align="center">muhr, sana ____ ____ ____ y.</p>